(4). Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006.
(5). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 320-bet.
(6). Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press, 1962, 168 p.
(7). Searle J.R., Vanderveken D. Foundations of Illocutionary Logic. Cambridge: Cambridge University Press, 1985, 227 p.

Radjabova Jayron Ikram qizi (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs tayanch doktoranti; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

“ALVIDO, QUROL!” VA “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANLARIDA BADIIY VAQT VA MAKON POETIKASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy vaqt va makon kategoriyalarining poetik xususiyatlari qiyosiy-tipologik aspektda tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki adib ijodida xronotopning badiiy-kompozitsion, psixologik hamda falsafiy-estetik funksiyalarini aniqlash, urush voqeligining zamon va makon munosabatlari orqali ifodalanish mexanizmlarini yoritishdan iborat. Qiyosiy-tipologik, struktural-semantik, narratologik va kontekstual tahlil usullari yordamida romanlardagi voqealar ketma-ketligi, retrospektiv tasvir, psixologik vaqt, tarixiy xotira, makonlar almashinuvi va tabiat tasvirlarining semantik vazifalari o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy vaqt, badiiy makon, xronotop, urush nasri, retrospeksiya, narrativ struktura, tarixiy xotira, psixologik vaqt, qiyosiy tipologiya, poetika, Ernest Xeminguey, O‘tkir Hoshimov.*

Раджабова Джайрон Икрам кизи (Аспирант 2-го года обучения Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

ПОЭТИКА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВРЕМЕНИ И ПРОСТРАНСТВА В РОМАНАХ «ПРОЩАЙ, ОРУЖИЕ!» И «ЖИЗНИ, ПРОЖИТЫЕ ВО СНЕ»

Аннотация. *В данной статье в сравнительно-типологическом аспекте исследуются поэтические особенности категорий художественного времени и пространства в романах Эрнеста Хемингуэя «Прощай, оружие!» и Уткира Хашимова «Жизни, прожитые во сне». Основная цель исследования заключается в выявлении художественно-композиционных, психологических и философско-эстетических функций хронотопа в творчестве двух писателей, а также в раскрытии механизмов художественного воплощения военной действительности посредством временных и пространственных отношений. С использованием сравнительно-типологического, структурно-семантического, нарратологического и контекстуального методов анализа рассматриваются последовательность событий, ретроспективное повествование, психологическое время, историческая память, смена пространственных локусов и семантические функции пейзажных описаний в исследуемых романах.*

Ключевые слова: *художественное время, художественное пространство, хронотоп, военная проза, ретроспекция, нарративная структура, историческая память, психологическое время, сравнительная типология, поэтика, Эрнест Хемингуэй, Уткир Хашимов.*

Radjabova Jayron Ikram qizi (2nd year PhD student at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named Alisher Navoi; Gmail: radjabovajayron99@gmail.com)

THE POETICS OF ARTISTIC TIME AND SPACE IN THE NOVELS “A FAREWELL TO ARMS” AND “LIVES LIVED IN A DREAM”

Annotation. *This article examines the poetic features of artistic time and space in Ernest Hemingway’s A Farewell to Arms and O‘tkir Hoshimov’s Lives Lived in a Dream from a comparative-typological perspective. The primary aim of the study is to identify the artistic-compositional, psychological, and philosophical-aesthetic functions of the chronotope in the works of both authors, as well as to explore the mechanisms through which the realities of war are represented through temporal and spatial relationships. Employing comparative-typological, structural-semantic, narratological, and contextual methods of analysis, the study investigates the sequence of events, retrospective narration, psychological time, historical memory, spatial transitions, and the semantic functions of landscape descriptions in the selected novels.*

Keywords: *artistic time, artistic space, chronotope, war prose, retrospection, narrative structure, historical memory, psychological time, comparative typology, poetics, Ernest Hemingway, O‘tkir Hoshimov.*

Kirish. XX asr jahon adabiyotida urush mavzusi insoniyat tarixidagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni badiiy idrok etishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Jahon urushlari, totalitar siyosiy tizimlar, mustamlakachilik munosabatlari va harbiy mojarolar adabiyotda nafaqat tarixiy voqealar tasvirini, balki inson mavjudligining ma’naviy, axloqiy va psixologik asoslarini qayta ko‘rib chiqish zaruratini ham yuzaga keltirdi. Ayniqsa, urush nasrida inson va tarix, shaxs va jamiyat, hayot va o‘lim, erkinlik va majburiyat kabi qarama-qarshi tushunchalar o‘ziga xos badiiy talqin kasb etdi.

Urush haqidagi romanlarda tarixiy voqelikning badiiy ifodasi ko‘pincha vaqt va makon kategoriyalari bilan uzviy bog‘liq holda yuzaga chiqadi. Chunki urush insonning odatiy hayotiy ritmini o‘zgartiradi, makon haqidagi tasavvurlarini izdan chiqaradi hamda o‘tmish, hozirgi zamon va kelajak o‘rtasidagi tabiiy uzviylikni murakkablashtiradi. Tinchlik sharoitida inson uchun barqarorlik va xavfsizlik timsoli bo‘lgan makon urush davrida tahdid, begonalashuv yoki yo‘qotish manbaiga aylanishi mumkin. Shuningdek, jangovar vaziyatlarda vaqtning kechishi ham odatiy xronologik o‘lchovdan farqli ravishda idrok etiladi: ayrim lahzalar qahramon ongida favqulodda cho‘zilsa, uzoq davom etgan tarixiy jarayonlar qisqa xotira parchalarida mujassamlashadi.

Adabiyotlar sharhi. Mazkur tadqiqot sifatli adabiy tahlil tamoyillariga asoslanadi. Tadqiqot materiali sifatida Ernest Xemingueyning “Alvido, qurol!” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlari tanlandi. Asarlarning turli tarixiy va milliy adabiy muhitga mansubligi qiyosiy tahlil uchun muhim metodologik imkoniyat yaratadi. Tadqiqotda bir-birini to‘ldiruvchi beshta metodologik yondashuvdan foydalanildi. Birinchisi, qiyosiy-tipologik metod bo‘lib, uning yordamida ikki roman xronotopidagi umumiy va farqli xususiyatlar aniqlanadi. Bunda asarlar o‘rtasida bevosita adabiy ta’sir mavjudligi oldindan taxmin qilinmaydi. Qiyoslashning asosi urush mavzusining turli adabiy tizimlarda o‘xshash badiiy muammolarni yuzaga keltirishi bilan belgilanadi. Ikkinchisi, narratologik metod bo‘lib, u voqealar ketma-ketligi, hikoyalash tartibi, retrospeksiya, narrativ davomiylik va fokalizatsiya xususiyatlarini o‘rganishga xizmat qiladi. Genettening narrativ vaqtga oid kategoriyalari mazkur bosqichda asosiy tahliliy vosita sifatida qo‘llaniladi. Uchinchisi, xronotopik tahlil metodi bo‘lib, unda Baxtin nazariyasiga tayangan holda vaqt va makonning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Front, gospital, uy, shahar, chegara, yo‘l va tabiat makonlari alohida geografik birliklar sifatida emas, balki muayyan tarixiy va psixologik vaqt bilan birlashgan badiiy tizim sifatida talqin qilinadi. To‘rtinchisi, struktural-semantik metod bo‘lib, uning yordamida makon va vaqtga oid obrazlar, ramzlar, takrorlanuvchi detallar hamda kompozitsion parallelizmlar tahlil qilinadi. Jumladan, yomg‘ir, kuz, daryo, yo‘l, chegara va yopiq makonlarning badiiy ma’nolari o‘rganiladi. Beshinchisi, kontekstual tahlil metodi bo‘lib, u romanlardagi tarixiy voqelik va badiiy talqin munosabatlarini aniqlashga qaratiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hemingway romanida Birinchi jahon urushi, Hoshimov romanida esa sovet davri tarixiy jarayonlari asarning poetik tuzilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi kontekst sifatida hisobga olinadi. Tadqiqotning tahliliy mezonlari quyidagicha belgilandi: voqealar vaqtining xronologik yoki retrospektiv tashkil etilishi; tarixiy va individual vaqt munosabati; makonlar almashinuvi; ochiq va yopiq makonlarning semantikasi; tabiat tasvirining vaqtni belgilashdagi funksiyasi; qahramonning ruhiy holati va makon idroki o‘rtasidagi bog‘liqlik. Ushbu mezonlarning birgalikda qo‘llanishi romanlarni faqat sujet darajasida emas, balki ularning ichki poetik qonuniyatlari asosida qiyoslash imkonini beradi.

Natijalar va muhokama. Badiiy vaqtning tashkil etilishi har qanday epik asarning kompozitsion xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Urush haqidagi romanlarda esa vaqtning badiiy shakllanishi ayniqsa murakkab mazmun kasb etadi. Chunki urush inson hayotini keskin o‘zgartirib, uning shaxsiy tajribasini tarixiy jarayonlar bilan to‘qnash keltiradi. Natijada voqealarning tashqi xronologiyasi va qahramonning ichki vaqt idroki o‘rtasida muayyan ziddiyat yuzaga keladi. Xemingueyning “Alvido, qurol!” romanida voqealar Frederic Henryning birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Asar o‘tmishda yuz bergan voqealarni eslash shaklida bayon etilgan bo‘lsa-da, asosiy syujet rivoji nisbatan izchil xronologik tartibga ega. Qahramonning frontdagi faoliyati, jarohatlanishi, gospitaldagi davolanishi, Ketrin Barkley bilan munosabatlarining rivojlanishi, frontga qaytishi, harbiy chekinish, urushdan voz kechishi va Shveytsariyaga o‘tishi o‘zaro sababiy bog‘langan voqealar tizimini tashkil etadi. Bu izchillik romanning mutlaq chiziqli tuzilganini anglatmaydi. Asarda vaqtning qisqartirilishi, ayrim davrlarning umumlashtirilishi, muhim lahzalarning batafsil tasvirlanishi va hikoyachining o‘tmish tajribasiga munosabati orqali narrativ vaqt murakkablashadi. Shunga qaramay, asarning asosiy kompozitsion harakati qahramonning bir hayotiy bosqichdan boshqasiga o‘tishi bilan belgilanadi. Romanning besh qismga ajratilishi ham ushbu rivojlanish mantig‘iga mos keladi. Har bir qism qahramon hayotidagi muayyan burilish bilan bog‘liq bo‘lib, voqealarning ketma-ketligi uning dunyoqarashidagi o‘zgarishlarni bosqichma-bosqich ochib beradi. Qahramonning yana harbiy muhitga qaytishi shaxsiy vaqt va tarixiy vaqt o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi.

Urush sharoitida ushbu ikki vaqt shakli o‘rtasidagi ziddiyat ayniqsa keskinlashadi. Tarixiy jarayonlar shaxsiy hayotga tashqaridan kirib keladi, insonning kelajak haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi va uning mavjudlik imkoniyatlarini cheklaydi. Xeminguey romanida Birinchi jahon urushi keng tarixiy fon vazifasini bajarsa-da, asarning asosiy narrativ markazi Frederic Henryning individual tajribasidir. Urushning siyosiy sabablari yoki davlatlararo munosabatlar batafsil tarixiy sharhlanmaydi. Aksincha, tarixiy voqelik qahramonning bevosita kuzatuvlari, suhbatlari va shaxsiy kechinmalari orqali anglashiladi. Bu usul tarixiy vaqtni individuallashtirish imkonini beradi. Urush qahramon uchun mavhum siyosiy hodisa emas, balki uning kundalik hayotini o‘zgartirayotgan real tajribaga aylanadi.

O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida ham tabiat tasvirlari muhim poetik vazifa bajaradi. Ayniqsa, kuz manzarasi asarning umumiy fojiaviy kayfiyati va kompozitsion yaxlitligini belgilovchi obrazlardan biridir.

Qiyosiy-tipologik tahlil natijalarining umumlashtirilishi. Olib borilgan matniy va qiyosiy tahlil ikki romanda xronotopning bir qator umumiy hamda farqli xususiyatlarini ajratish imkonini beradi.

Qiyoslash mezoni	“Alvido, qurol!”	“Tushda kechgan umrlar”
Narrativ vaqt	Retrospektiv hikoyalash doirasida nisbatan izchil rivojlanish	Ko‘p qatlamli retrospektiv kompozitsiya
Tarixiy vaqt	Birinchi jahon urushi voqeligi	Sovet davrining turli tarixiy bosqichlari
Psixologik vaqt	Individual tajriba, kutish va yo‘qotish	Urush xotirasi va ruhiy iztirobning davomiyligi
Asosiy makon	Italiya fronti, gospital, Stresa, Shveysariya	Afg‘oniston, uy, shahar, ijtimoiy-siyosiy muhit
Yo‘l xronotopi	Urushdan uzoqlashish va shaxsiy erkinlikka intilish	Tarixiy zo‘ravonlikka duch kelish va uning oqibatlari
Tabiat xronotopi	Yomg‘ir, qor, tog‘ va fasllarning almashinuvi	Kuz manzarasi va halqasimon kompozitsiya
Xotira funksiyasi	Shaxsiy tajribani qayta hikoyalash	Shaxsiy va tarixiy xotiraning tutashuvi
Yetakchi falsafiy mazmun	Inson mavjudligining beqarorligi	Shaxs va tarixiy tizim o‘rtasidagi ziddiyat

Xulosa. Ernest Xeminguey ning “Alvido, qurol!” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy vaqt va makon poetikasini qiyosiy-tipologik o‘rganish natijasida mazkur kategoriyalarning asarlar kompozitsiyasi, qahramonlar ruhiyati va mualliflarning falsafiy-estetik konsepsiyasini shakllantirishdagi muhim vazifalari aniqlandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, har ikki romanda xronotop urush voqeligini tasvirlovchi tashqi shakl bo‘lib qolmay, inson va tarix munosabatlarini badiiy idrok etishning asosiy vositalaridan biriga aylanadi.

Qiyosiy tahlil natijasida har ikki romanda urush makoni insonning erkinligi va shaxsiy hayotiga tahdid soluvchi badiiy tizim sifatida talqin qilinishi aniqlandi. Biroq Hemingwayda makonlar almashinuvi ko‘proq individual hayotiy tanlov bilan bog‘lansa, Hoshimovda makon tarixiy xotira va ijtimoiy munosabatlar bilan kengaytiriladi. Shuningdek, tabiat tasvirlarining xronotopik vazifasi ham romanlar poetikasida muhim o‘rin egallaydi. Hemingwaydagi yomg‘ir va fasllar almashinuvi qahramonning shaxsiy kechinmalari hamda yo‘qotishlari bilan bog‘liq bo‘lsa, Hoshimovdagi kuz manzarasi tarixiy va individual fojialarni umumlashtiruvchi ramziy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotning asosiy nazariy natijasi shundan iboratki, urush nasrida xronotopni uch o‘zaro bog‘liq darajada tahlil qilish maqsadga muvofiq: birinchisi voqealar vaqtining narrativ tashkil etilishi; ikkinchisi makonning tarixiy va semantik funksiyasi; uchinchisi vaqt va makonning qahramon ruhiyati bilan o‘zaro munosabati. Mazkur uch darajali yondashuv turli milliy adabiyotlarga mansub romanlarning poetik xususiyatlarini yagona metodologik mezon asosida qiyoslash imkonini beradi. Umuman, “Alvido, qurol!” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy vaqt va makonning turlicha tashkil etilishi urush mavzusining ikki xil tarixiy-madaniy tajriba doirasida badiiy talqin etilganini ko‘rsatadi. Xeminguey individual inson mavjudligining fojiaviy mohiyatini markazga qo‘ysa, Hoshimov shaxsiy taqdir orqali tarixiy xotira, ijtimoiy adolatsizlik va ma’naviy mas’uliyat masalalarini kengroq yoritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Bakhtin M.M. (1981). Forms of Time and of the Chronotope in the Novel: Notes toward a Historical Poetics. In M.Holquist (Ed.), The Dialogic Imagination: Four Essays (C.Emerson&M.Holquist, Trans., p. 84–258). Austin: University of Texas Press.

(2). Beversluis J. (1989). Dispelling the Romantic Myth: A Study of a Farewell to Arms. The Hemingway Review, 9(1), p. 18–25.
(3). Hemingway E. (1929). A Farewell to Arms. New York: Charles Scribner's Sons.
(4). Hoshimov O'. (2002). Tushda kechgan umrlar. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

Yuldashova Zuxra Xasan qizi (Urganch davlat Pedagogika instituti tayanch doktoranti;
https://orcid.org/0009-0000-7648-6244; zyuldashova3@gmail.com)

XORIJ VA O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI MUSHTARAKLIK: OBRAZLAR XILMA-XILLIGINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek va jahon xalqlarining 40 dan ortiq sehrli ertaklari qiyosiy-tipologik tahlil qilinadi. Tadqiqotda V.Propp metodologiyasi va ATU xalqaro indeksi asosida g'ayritabiiy obrazlarning (dev, ajdarho, yalmog'iz, pari) funksional analoglari qiyoslangan. Tahlil natijasida ertak sujetlarining tarkibiy sxemasi universal xarakterga ega ekanligi, biroq obrazlarning ramziy mazmuni milliy landshaft hamda milliy-madaniy omillar (Xorazm ertaklari misolida voha va cho'l ziddiyati) ta'sirida o'zgarganligi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *xalq ertaklari, qiyosiy folklorshunoslik, obrazlar tizimi, sehrli ertak, Propp morfologiyasi, ATU indeksi, Xorazm folklori, landshaft determinizmi.*

ОБЩНОСТЬ В ЗАРУБЕЖНЫХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗКАХ: СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МНОГООБРАЗИЯ ОБРАЗОВ

Аннотация. *В статье на основе сравнительно-типологического метода анализируется более 40 волшебных сказок узбекского и мирового фольклора. На базе методологии В. Проппа и международного индекса ATU сопоставлены функциональные аналоги сверхъестественных персонажей (див, дракон, Баба-яга, пери). Доказывается универсальность композиционных схем сказочных сюжетов, при этом обосновывается, что символическое содержание образов трансформировалось под влиянием национального ландшафта и культурно-бытовых факторов (на примере оппозиции оазиса и пустыни в хорезмских сказках).*

Ключевые слова: *народные сказки, сравнительное фольклороведение, система образов, волшебная сказка, морфология Проппа, индекс ATU, хорезмский фольклор, ландшафтный детерминизм.*

COMMONALITIES IN FOREIGN AND UZBEK FOLK TALES: A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF CHARACTER DIVERSITY

Annotation. *This article provides a comparative-typological analysis of over 40 magic tales from Uzbek and world folklore. Drawing on V.Propp's methodology and the ATU international index, the study compares the functional analogues of supernatural characters (dev, dragon, yalmog'iz-kampir, pari). The results prove the universality of the compositional structure of tale plots, while demonstrating that the symbolic meaning of characters was transformed under the influence of the national landscape and cultural factors (exemplified by the oasis-desert contrast in Khorezm tales).*

Key words: *folk tales, comparative folkloristics, character system, magic tale, Proppian morphology, ATU index, Khorezm folklore, landscape determinism.*

Kirish. Xalq ertagi insoniyatning eng qadimiy va eng barqaror badiiy tafakkur shakllaridan biri sifatida deyarli barcha xalqlar madaniyatida uchraydi. Bir-biridan geografik va tarixiy jihatdan uzoq turgan xalqlarning ertak sujetlarida uchraydigan ajablanarli o'xshashlik uzoq vaqtdan beri folklorshunoslar e'tiborini tortib kelmoqda. Bu o'xshashlik masalasini ilmiy tizimga solishga birinchilardan bo'lib A.Aarne intilgan bo'lsa, uning ishi keyinchalik S.Tompson va X.-Y.Uter tomonidan kengaytirilib, bugungi kunda ATU (Aarne–Thompson–Uther) xalqaro indeksiga aylandi [1].

O'zbek folklorshunosligida xalq ertaklarini jahon konteksti bilan qiyoslash masalasi alohida yo'nalish sifatida shakllangan. Biroq mintaqaviy, xususan, Xorazm ertak an'analarining umumjahon tizimidagi o'rnini aniqlashtirish va ularning obrazlar tizimini xorijiy analoglar bilan qiyosiy tahlil qilish masalasi hamon dolzarbligicha qolmoqda [11]. Zamonaviy jahon folklorshunosligida Jek Zayps (J.Zipes) va Alan Dandes (A.Dundes) kabi olimlar ertaklarning nafaqat strukturaviy, balki ijtimoiy-madaniy va ekologik determinizmini o'rganishga urg'u bermoqdalar [2;12-b.]. Matnlarning strukturaviy transformatsiyasi va tillararo janriy tabiatini tadqiq etishda ham qiyosiy metod muhim o'rin tutadi [13].